
“Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati davom etmoqda
Joriy yilning 20 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev videoselektor yig‘ilishida “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakatini tashkil etish bo‘yicha topshiriq bergan edilar.

Qo‘shtepa tumanida "Saxovat va ko‘mak" umumxalq harakati doirasida o‘ta nochor va yordamga muhtoj oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilmoqda.

Ushbu harakat doirasida mahallalar kesimida 138 ta ijtimoiy himoyaga muhtoj, ehtiyojmand oilalarning har biriga 220000 so'mlik oziq ovqat mahsulotlari tarqatildi.

Bu kabi saxovat tadbirlari tumanimizning barcha sektor rahbarlari tomonidan muntazam o'tkazib kelinmoqda. Zero, xalqni rozi qilish, har bir rahbarning birinchi vazifasiga aylangani uchun odamlar sinovlarni yengib, har bir qilinayotgan yordamlardan rozi bo'lmoqda.



2020-06-29 09:28:46